



Imom Hafs ibn Sulaymonning hayoti va ilmiy faoliyati

Obidov Qosimjon

Toshkent islom instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Imom Hafs ibn Sulaymon (rohimahulloh) haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Hafs ibn Sulaymon, Imom Osim, mutavotir qiroatlar.

Hafs ibn Sulaymon rohimahullohning to'liq ismi Abu Amr Hafs ibn Sulaymon ibn al-Mug'iyra al-Kufiy al-Bazzoz. U zotni Hafs ibn Abu Dovud, yana Hufays deb ham ataganlar. Hijriy 90-yil, milodiy 709-yil Kufa shahrida tavallud topgan va o'sha yerda yashagan. Asli arab emas, balki Banu Asad qabilasining ozod qilgan qullaridan bo'lgan. Bu davrda Kufa shahri ilm-ma'rifat markazlaridan bo'lib, turli ilmlarda ko'plab olimlar yetishib chiqqan. Jumladan Abu Hanifa, Ja'far as-Sodiq, Kufaning qozisi Abu Burda ibn Abu Muso Ash'ariy, Ali ibn Hamza al-Kisoiy, Abu Ja'far ar-Ruasiy (rohmatullohi alayhim ajma'in) kabi yirik kufalik olimlar bilan zamondosh edi.

Imom Hafs (rohimahulloh) Kufa ahlining qorisidir. U yetti mashhur mutavotir qiroat imomlaridan biri Osim ibn abu an-Najudning mashhur ikki roviylaridan biri bo'lib, Osim qirati bo'yicha mohir bilimdonlardan bo'lgan. Hayoti davomida Imom Osimdan ko'p marta Qur'onni takror o'tkazgan.

U asli Imom Osimning o'gay o'g'li bo'lgan va u kishining tarbiyasida o'sgan. Shuning uchun yoshligidan imom Osimdan Qur'oni karim qiroatini chuqur o'rgangan. Bag'dod va Makka shaharlarida qiroat ilmidan ta'lim bergan.



Muhammad ibn Sa'd al-Avfiy (rohimahulloh) otasining shunday deganini aytadi: «Bizga Hafs ibn Sulaymon soʻzlar edi. Agar uni koʻrganingizda, koʻzingiz undagi fahm va ilm sababli nurga toʻlgan boʻlardi».

Yahyo ibn Ma'in aytadi: «Osimdan rivoyat qilgan eng toʻgʻrisi- Abu Umar Hafs ibn Sulaymonning rivoyatidir».

Imom Zahabiy (rohimahulloh) aytadi: «Hafs qiroatda ishonchli va mustahkam. Lekin hadis aytishda unday emas».

Imom Hafs otasi Osimga: «Abu Bakr ibn Ayyosh mendan boshqacha oʻqiyapti» dedi. Shunda Osim: «Seni ustozim Abu Abdurahmon as-Sulamiy meni oʻqitgani boʻyicha oʻqitdim. U qiroatni Ali ibn Abu Tolibdan (roziyallohu anhu) olgan. Abu Bakrni esa, ustozim Zirr ibn Hubaysh meni oʻqitgani kabi oʻqitdim. U esa, qiroatni Abdulloh ibn Mas'uddan (roziyallohu anhu) olgan».

Hafs qiroati sahih va Rosulullohgacha (sollallohu alayhi vasallam) yetib boruvchi muttasil sanadga ega. Chunki u kishining sanadi Aliy ibn Abu Tolibga (roziyallohu anhu) u kishidan Nabi (sollallohu alayhi vasallam)ga yetib boradi.

Amr ibn as-Saboh (Hafning yaqinlaridan boʻlgan), uning ukasi Ubayd ibn as-Saboh, Abu Shuayb Solih ibn Muhammad al-Qavvos, Abdurahmon ibn Muhammad ibn Voqid, Abu Shuayb al-Qavvos, Xalaf al-Haddod (rohmatullohi alayhim ajma'in) va boshqalar Imom Hafsdan qiroat ilmini oʻrganganlar.

Hadis ilmi ulamolarining aksari uni hadis rivoyati ilmida zaif sanashgan. Jumladan, Imom Buxoriy (rohmatullohi alayhi): «U rivoyat qilgan hadislar olinmagan», deydi. Imom Muslim (rohmatullohi alayhi): «(Hadisda) ishonchli emas», deydi. Shunday boʻlsada Imom Termiziy, Nasoiy va Ibn Mojalar (rohmatullohi alayhim) Hafsdan “taxrij” qilib hadis rivoyat qilishgan.



Imom Osim (rohimahulloh) qiroatni shayxlaridan olganidek, ikki shogirdiga huddi shunday o'rgatgan edi.

Dastavval har bir insonning qiroati o'z davrida o'zi yashagan hududda tarqalgan. Lekin tarixiy jarayonlar natijasida qiroatlarning tarqalish xaritasi o'zgardi. Natijada Imom Hafsning Imom Osimdan qilgan rivoyati eng mashhur va eng keng tarqalgan qiroat bo'ldi.

Usmoniylar hukmdorligi davrida mus'haflar Hafsning Osimdan qilgan qiroatiga tayanib nashr etilib tarqatilgan. Shu qiroat asosida ta'lim olish va ta'lim berish yo'lga qo'yilgan. Natijada ushbu qiroat keng tarqalgan.

Bundan tashqari Imom Hafs ko'plab shaharlarga borib qiroatdan ta'lim bergani, uning qiroat qoidalari oson va yengil bo'lgani uchun unda qiroat qiladiganlar soni oshishiga sabab bo'lgan. Imom Hafs (rohimahulloh) hijriy 180-yil, milodiy 796-yil vafot etdi. Imom Hafsning qiroati butun dunyoda keng tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Jahongir Ubaydulloh. Qiroat va tajvid fanidan qo'llanma. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2020. -B. 400.**
2. https://ar.wikipedia.org/wiki/%D8%AD%D9%81%D8%B5_%D8%A8%D9%86_%D8%B3%D9%84%D9%8A%D9%85%D8%A7%D9%86_%D8%A7%D9%84%D9%83%D9%88%D9%81%D9%8A
3. [https://uz-m-wikipedia-org.translate.goog/wiki/ Abu Bakr ibn Ayyosh? _x_tr_sl=uz& _x_tr_tl=ru& _x_tr_hl=ru& _x_tr_pto=sc](https://uz-m-wikipedia-org.translate.goog/wiki/Abu+Bakr+ibn+Ayyosh?_x_tr_sl=uz&_x_tr_tl=ru&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=sc)